

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREDIT MODUL TIZIMIDA  
MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Rashidova Saida

Guliston davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kredit-modul tizimi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida, boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda qo'llash nazariyalari va ularning ahamiyati tahlil etilgan bo'lib, unda kredit-modul sistemasining mazmun va mohiyati, shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotda sinflarda ta'lim jarayonini ijtimoiy kompetensiya asosida tashkil etishning samarasi va yosh avlodning ijtimoiylashuviga ta'siri haqida fikrlar bayon etilgan.

**Annotation:** In this article, the theories of using the credit-module system in the higher education institutions of Uzbekistan, in the teaching of elementary school subjects and their importance are analyzed. In the growing social life, ideas are expressed about the effectiveness of organizing the educational process in classes based on social competence and the impact on the socialization of the young generation.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теории использования кредитно-модульной системы в высших учебных заведениях Узбекистана, при преподавании предметов начальной школы и их значение. В условиях растущей общественной жизни высказываются идеи об эффективности организации образовательный процесс в классах основан на социальной компетентности и влиянии на социализацию молодого поколения.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul tizimi, modul, modernizatsiya, ijtimoiy hayot, kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, kredit asosida o'qitishning asosiy texnologiyasi, muloqot kompetensiyasi.

**Key words:** Credit-module system, module, modernization, social life, competence, primary education, basic technology of credit-based education, communication competence.

**Ключевые слова:** Кредитно-модульная система, модуль, модернизация, общественная жизнь, компетентность, начальное образование, базовая технология кредитного образования, коммуникативная компетентность.

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit ta'lim tizimini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'lim tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning ko'plab dunyo davlatlari ta'lim tizimlarida ko'proq tarqalganligi bilan asoslanadi, chunki ta'lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash

ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollik va bilim olishga o'zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Amaldagi o'qitish tartibidan farqli o'laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham talabaning individual dars jadvaliga kiritiladi. Talabalar o'qishdan haydalmaydi yoki kursdan-kursga qoldirilmaydi. Qaysi fan(kurs)dan belgilangan kreditlarni to'play olmasa, faqat o'sha fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi, xolos. Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlar to'plagandan so'ng beriladi

Bugungi globallashuv jarayonida, modernizatsiyalanayotgan, shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish davr talabi bo'lib qolmoqda. Ta'limga innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olish bilan bir qatorda ta'limda o'quvchilarning fanga doir bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish yetarli emasligi qayd etilmoqda. Hozirgi kunda o'quvchilarda o'quv fanlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Hozirda ta'lim kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi ko'zda tutilgan ekan, kompetensiya so'zining ma'nosini ko'rib chiqamiz. "Competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zmaso'z tarjima qilinsa "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turlitumandir. Atamaning mohiyati shuningdek «samaradorlik», «moslashuvchanlik», "yutuqlilik", muvaffaqiyatlilik», «tushunuvchanlik», "natijalilik», «uquvlilik», «sifat», «miqdor» kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda. Shunga ko'ra ta'lim kompetensiyalarini tasdiqlangan standartda keltirilgan ta'rif bo'yicha qabul qilamiz. Ta'lim kompetensiyasi o'quvchini kelajakdagi to'la qonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga yetgunga qadar ba'zi bir kompetensiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin, bu degani, ularni o'quvchida shakllantirilmaydi degani emas. Bu holatda biz ta'lim kompetensiyasi haqida gapiramiz. Masalan, o'quvchi maktabda fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtirsada, uni to'la qonli ravishda maktabni tugatganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra bunday kompetensiyalar, o'qish davrida ta'lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki regionning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor.

Muloqot kompetensiyasini rivojlantirish davomida shaxsiy yo'naltirilgan, madaniyatshunoslik va kreativ kabi yondashuvlarni amalga oshirish jarayonida ta'lim oluvchining shaxs xususiyatlarini inobatga olish, o'quv jarayonining muloqot motivatsiyasiga katta e'tibor qaratiladi. Chet tilini egallash usullari qatorida rivojlantiruvchi imkoniyatga ega bo'lgani afzal hisoblanadi: fikr uyg'otadi, uni ifodalash vositalarini rivojlantiradi, hissiyotlarni, obrazli tasavvurlarni boyitadi.

Bilim va ilmning shakllanishi esa bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda

mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.

Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Xo'sh, bundan ko'zlangan maqsad nima? Bugun va kelajak uchun mazkur mexanizm qay darajada foyda keltiradi? U yangi O'zbekistonning strategik maqsadlariga qanchalik mos?

quyida ana shu savollarga batafsil javob izlashga harakat qilamiz.

**Uning o'zi nima?**

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

*Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:*

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikm

Koronavirus pandemiyasi sharoitida inson hayotining barcha jabhasida misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ushbu silsilalar ko'p yillik shakllangan

qadriyatlar, an'analari va tamoyillarning "darz" ketishiga ham olib keldi. Xususan, nufuzli olimlar, xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan yaqin va o'rta istiqbolda kurrai zamin taraqqiyotiga tahdid soladigan xavf-xatarlar bo'yicha berilgan prognoz ko'rsatkichlari o'z tasdig'ini topmadi. Aksincha, ular qaytadan ko'rib chiqilayotir. Ammo shu narsa ayon: dunyo bir butunlikda harakat qilmas ekan, inson o'ta tahlikali vaziyat qurboniga aylanishi hech gap emas. Yagona najot yo'li esa to'plangan bilim, shakllangan ko'nikma va orttirilgan xulosalarni yagona maqsad sari yo'naltirish, ilm hamda tajribalarni samarali uyg'unlashtirishdir.

Bilim va ilmning shakllanishi esa bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarini yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.

Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Xo'sh, bundan ko'zlangan maqsad nima? Bugun va kelajak uchun mazkur mexanizm qay darajada foyda keltiradi? U yangi O'zbekistonning strategik maqsadlariga qanchalik mos?

quyida ana shu savollarga batafsil javob izlashga harakat qilamiz.

#### **Uning o'zi nima?**

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

*Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:*

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;

- *talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;*
- *ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;*
- *ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.*

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni
2. Каримбеков С. Узбекистан в XXI веке; обучение с использованием системы кредитов. Перспективы развития высшего образования N-3. Ташкент 2015. 115-с.
3. Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim tizimi rivojlanishida kredit sistemasining o'rni va ahamiyati. Oliy ta'lim taraqqiyoti istiqbollari: to'plam N-3. Toshkent 2015. 52-b.